
**NIKOH VA OILANING HOSIL BO`LISHIDA ASOSLANGAN
AXLOQIY QADRIYATLAR**

Hakimova Musharraf

Osiyo Xalqaro Universiteti pedagogika yo`nalishi 1 - kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada nikoh va oilaning axloqiy asoslari, shuningdek, ularning farzand tarbiyasidagi o'rni haqida fikrlar bayon etilgan. Inson shaxsining shakllanishida oilaning, ayniqsa ota-onaning ta'siri beqiyos ekani ta'kidlanadi. Shuningdek, nikohning jamiyatdagi ijtimoiy va ma'naviy ahamiyati, axloqiy tarbiyaning negizini tashkil etuvchi omil sifatida ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: nikoh, jamiyat, oila, tarbiya, axloqiy asos, axloqiy tarbiya, oilaviy munosabatlar, shaxsning shakllanishi.

Annotation: This article discusses the moral foundations of marriage and family, as well as their role in the upbringing of children. It emphasizes the significant influence of the family, especially parents, on the development of an individual. The importance of marriage as a social and moral institution is also highlighted, recognizing it as a key factor in the formation of ethical education.

Keywords: marriage, society, family, upbringing, moral foundation, moral education, family relations, personality development

Аннотация: В данной статье рассматриваются нравственные основы брака и семьи, а также их роль в воспитании детей. Подчеркивается огромное влияние семьи, особенно родителей, на формирование личности. Также отмечается важность брака как социального и нравственного института, играющего ключевую роль в нравственном воспитании.

Ключевые слова: брак, общество, семья, воспитание, нравственные основы, нравственное воспитание, семейные отношения, формирование личности

Nikoh va oila insoniyat jamiyatining eng qadimiy va muqaddas institutlaridan biri sanaladi. Uning barqarorligi va mustahkamligi esa avvalo axloqiy asoslarga tayanadi. Oila doirasidagi munosabatlar tarbiyaviy jarayonlar va farzand shaxsining shakllanishi to`g`ridan-to`g`ri oila a`zolarining axloqiy fazilatlariga bog`liq.

Nikoh va oila, oilaviy munosabatlarning asosiy qismi hisoblanadi va yoshlar uchun eng muhim tarbiyaviy muhitlardan biri. Nikoh va oilaning axloqiy asoslari yoshlar uchun model

va qo'llanma vazifasini bajaradi. Ular oilaviy munosabatlarni o'rganish, hurmat va muhabbatni o'rgatish, mas'uliyatni o'rgatish, sabr va tajribani o'rgatish kabi jismoniy va ma'naviy rivojlanishga yordam beradi. Yoshlar uchun nikoh va oilaning axloqiy asoslari, ularning insoniyatga hurmat ko'rsatishini, o'zgaruvchanliklarga qarshi bo'lishini, mas'uliyatni o'rganishini, do'stlik va mehribonlikni o'rgatishini ta'minlaydi. Bu asoslardan mustaqil shaxslar shakllanadi va jamoat a'zolari bo'lib qoladi. Nikoh va oilaning axloqiy asoslari yoshlar tarbiyasidagi o'rni o'ziga xosdir, chunki ular yoshlar uchun o'zaro aloqalarni, tajribalarni va qadriyatni shakllantirishda katta ahamiyatga ega. Yoshlar oilaviy munosabatlardan olgan ta'sir va

o'rgangan qadriyatlarini o'z hayotlarida amalga oshirishadi. Jumladan, nikoh va oilaning axloqiy asoslari yoshlar tarbiyasidagi eng muhim asosdir. Ular yoshlarga insoniyatga hurmat, mas'uliyat va sevgi o'rgatishda yordam beradi va ularning shaxsiy rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Nikoh va oilaga hurmat muhitida tarbiyalangan yoshlar ko'proq etuk xulq-atvorni, uzoq muddatli munosabatlarni o'rnatish va o'z harakatlari uchun mas'uliyatni o'z zimmalariga olish qobiliyatini namoyon etadilar. Shuningdek, ular oilani qo'llab-quvvatlashning qadrini yaxshiroq tushunadilar va bu qadriyatlar asosida o'z oilalarini qurishga tayyor. Demak, nikoh va oilaning axloqiy asoslari yoshlarni tarbiyalashda, ularning odob-axloqli, mas'uliyatli, ma'naviy barkamol shaxs bo'lib etishishlarida muhim ahamiyat kasb etadi. Ular shaxsiy hayotda ham, umuman jamiyatda ham sog'lom va barqaror munosabatlarni shakllantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Nikoh va oila jamiyatning asosiy institutlari bo'lib, shaxslar va jamoalarni shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Nikoh - bu ikki shaxs o'rtasidagi huquqiy va ijtimoiy shartnoma bo'lib, u umrbod hamkorlikni o'rnatadi, oila esa qon, nikoh yoki farzand asrab olish bilan bog'liq bo'lgan, hissiy rishtalarga ega va bir-birini qo'llabquvvatlaydigan odamlar guruhidir.

Axloqiy asoslар deganda jamiyatda qabul qilingan, insonlar o`rtasidagi muomala va xulq atvorga rahbar bo`ladigan ma`naviy-me`yoriy qadriyatlar tushuniladi. Bu qadriyatlar orqali insonlar bir- biriga nisbatan halol, odil, hurmatli va mehribon munosabatda bo`ladi. Aynan ana shunday axloqiy asoslар oilaviy hayotda er-xotin o`rtasidagi sadoqat, o`zaro hurmat, sabr-toqat, vafodorlik, ma`suliyat va halollik kabi fazilatlarda namoyon bo`ladi.

Oila-bu nafaqat iqtisodiy va ijtimoiy birlik, balki axloqiy tarbiyaning muhim manbai hisoblanadi. Farzandlar ota onaning harakatlariga qarab ulg`ayadi, ularning fe'l-atvori, qadriyatlar va dunyoqarashi oiladagi muhit asosida shakllanadi. Shu bois, oilaning axloqiy asoslari mustahkam bo`lsa farzandlarda ham sog'lom axloqiy ong, yuksak madaniyat va barkamol shaxsiy fazilatlar rivojlanadi. Oila barpo etilishi nikoh orqali amalga oshiriladi. Nikoh va oilaning axloqiy asoslari oilaviy tarbiyaning muvaffaqiyatli kechishini

ta`minlovchi asosiy omillardan biri bo`lib u jamiyat barqarorligi va ma`naviy salomatligining kafolati hisoblanadi. Nikoh -ikki inson o`rtasidagi ijtimoiy-ma`naviy va huquqiy jihatdan tan olingan muqaddas ittifoq bo`lib, uning mustahkamligi ko`p jihatdan axloqiy asoslarga tayanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2018-yil 2-fevraldagagi «Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori oila mustahkamligini ta'minlash, uning ijtimoiy vazifalarini amalga oshirish imkoniyatlarini kengaytirish, ayniqsa, oilaning farzandlar tarbiyasidagi nufuzini oshirishga ko'maklashish hamda mamlakatimizda oila va nikoh munosabatlarining qadriyat sifatida e'tirof etish uchun asosiy poydevor bo'lib xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 28 yilligiga bag'ishlangan marosimdagи ma'rzasida oilaning jamiyat taraqqiyotidagi nufuzi haqida: «Barchamizga ayonki, yurtimizda har qaysi inson, har qaysi oilaning eng ezgu orzu-maqсадлари, hayotiy manfaatlari avvalambor uning farzandlari timsolida namoyon bo'ladi, ro'yobga chiqadi. Albatta, bu borada yurtimizda ulkan ishlar qilinmoqda va ular amalda o'zining ijobiy natijasini bermoqda», — deb ta'kidlagan edilar.

Ma`lumki jamiyat taraqqiyotining rivoji undagi oilalarning ijtimoiy, iqtisodiy va ma`naviy axloqiy qiyofasiga bog`liq. Oila , davlat va jamiyatning kelajagi hisoblanadigan farzandlar uchun eng asosiy tarbiya makoni bo`lib, bu makonda bola kamoloti uchun ahamiyatli bo`lgan ta`lim-tarbiya, xula-atvor,xatti-xarakter hamda davlat va jamiyatga ,insonlarga bo`lgan munosabatlar shakllanadi. Zero ,oilaga xos ananalar, qadriyatlar urf odatlar ta`sirida bola har tomonlama shakllantiradi.

O`zbek oilalaridagi yurtiga sadoqat vatanparvarlik ,mehnatsevarlik bag`rikenglik shu bilan bir qatorda qarindosh-urug`lar qo`ni qo`shnilar, do`st-borodarlar o`rtasidagi o`zaro mehr oqibat hamjihatlik samimiy munosabat ro`stgo`ylik, hallollik va shu kabi yana ko`plab xususiyatlar xalqimizning boy ma`naviy -axloqiy qadriyatлari, an`ana va urf-odatlari ildiziga borib tarqaladi.

Darhaqiqat farzand tarbiyasi haqida gap ketganda bundan uch yarim ming yil ilgari yashab o`tgan firavnarning qabrtoshi ustiga “ Yoshlarimiz o`jar va qaysar, keksalarning aytganini nazar- pisandga olmaydi, ajdodlar qadriyatлarni inkor etadi”, - dagan so`zlarning bitib qo`yilgani yoshlар tarbiyasi insoniyat tarixiy taraqqiyotining barcha davrlarida ham hozirgidek eng dolzarb masalalaridan biri bo`lib kelganinin tasdiqlaydi. Bugungi kunda mamlakatimizda oilalarni mustahkamlash , yosh avlodni jismonan va ruhan sog`lom qilib tarbiyalash,jamiyatning ravnaq topishida oilaning tutgan o`mi va ishtirokini yanada oshirish, oilada manaviy -axloqiy tarbiya masalalariga yo`naltirilgan chora tadbirlar

ko`lamini kengaytirishga alohida e`tibor qaratilmoqda. Chunki millatni, vatanni va bugungi yangilanayotgan O`zbekistonni kelajagi aynan shu oilalarimizdan o`sib ulg`ayayotgan yoshlar qo`lidadir. Farzand nafaqat ota-onaning, balki butun jamiyatning eng katta boyligi hisoblanadi. Odatda, farzand oilada ham jismonan ham ma'nан ulg`ayib, shakllanaadi. Ularning voyaga yetishi davomida oiladagi ahillik muhim rol o`ynaydi. Ayniqsa, ularning ma'naviy tarbiyasi bilan jamiyatga xizmatini ifodalarydi. Demak, oila barkamol avlodni tarbiyalovchi maskan hisoblanadi. Shunday ekan, oilada farzandlarni ahloqiy, ma'naviy jihatdan tarbiyalash, ayniqsa, ona yurtga muhabbat, istiqlolga sadoqat tuyg`ularini chuqur singdirish, vatanparvarlikni shakllantirish, ona vatanni sevish hissini uyg`otish o`ta muhimdir. Insonning shakllanishida, hayotda o`z o`rnini topishida, el-yurt ichida izzat-hurmatga sazovor bo`lishida, yuksak ahloq-odob qoidalarini singdirishda oilaning o`rni beqiyosligini bir so`z bilan ta`riflash kamlik qiladi. Yoshlarni o`z burchiga sadoqat ruhida tarbiyalashda mas`uliyatlilik, vijdoniylilik, fidoyilik kabi fazilatlari har bir hatti-harakatida namoyon bo`lishi bilan yuksak ma'naviyatliligini ko`rsatadi. Bunda ota-onaning o`zaro farzandlari bilan yaqin, do`stona munosabatda bo`lishi, ularning kelajakdagagi orzu-maqсадlarini tushunib olishlari farzandlarining ham jismoniy ham ma'naviy sog`-salomat voyaga yetishlari uchun asos bo`ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sh.M.Mirziyoyev «Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-5188 sonli qarori 2018-yil 2-fevral
2. I.A. Karimov "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" Toshkent, Ma'naviyat, 2008. 52-bet
3. G.Abdumajidov. Fuqarolik va Oilal munosabatlari.
4. F.Otaxo'jaev. Nikoh va uninghuquqiy tartibga solinishi. Toshkent., 1995 yil
5. O.Hasanboyeva, D.Xoliquov, Rocc Kemibell, Sh.K.Toshpo'latova, M.Sh.Nurmatova, X.J.Jabborova, N.Jamilova, Sh.Egamnazarova, N.Qayumova, M.M.Pirmuhamedova, L.A.Kulay, Sh.Sodiqova, B.Xojimurodova, M.A.Rasulxo'jayeva, R.Avezova. "Oilal pedagogikasi" «ALOQACHI» nashriyoti, Toshkent-2007
6. Huquqshunoslik. O'quv qo'llanmasi. Toshkent., 2002 yil.
7. Juli Xanlon Rubioning "Nikoh va oila axloqi: nasroniy nuqtai nazari"
8. Lorna Xekker va Linda L. Beuscher tomonidan "Oilaviy munosabatlardagi axloq: klinisyenler va o'qituvchilar uchun qo'llanma"